QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI .....	1204
<b>Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna</b>	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
<b>Sapayev Axmed Durdibayevich</b>	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH.....	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI .....	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH .....	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJIRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI .....	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI .....	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE .....	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ .....	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI .....	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ.....	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA JARAYONI .....	1336
<b>Norov Murodjon Maxmudovich</b>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
<b>Maxkamov Otabek Muhammadjonovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
<b>Egamberdiyev Jonibek O'ralovich</b>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI .....	1354
<b>Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich</b>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI .....	1360
<b>Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
<b>Дадабоева Муштари Хамидиллаевна</b>	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI .....	1371
<b>Jalalova Dildora Jamolovna</b>	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
<b>Karshieva Marjona Alisher kizi</b>	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	1380
<b>Qurbonova Malika Ahmad qizi</b>	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI .....	1384
<b>Uzoqov Farhod G'afforovich</b>	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
<b>Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich</b>	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
<b>Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich</b>	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI .....	1396
<b>Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna</b>	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI .....	1402
<b>Muyassarzoda Fayziyeva</b>	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI .....	1408
<b>Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna</b>	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
<b>Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich</b>	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
<b>Zakirova Oisha</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ .....	1431
<b>Сиддикова Гулноза Абдумаликовна</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
<b>Nuraliyeva B.</b>	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI .....	1443
<i>Raximov Xasan Shukurjonovich</i>	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH .....	1450
<i>Kurolov Maksud Obitovich</i>	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
<i>Esanova Shohida</i>	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ .....	1468
<i>Хамзина Динара Рашатовна</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
<i>Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich</i>	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH .....	1482
<i>Masharipova Sevara Bekturdi qizi</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI .....	1487
<i>Marimova Indira Rasul qizi</i>	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELII.....	1492
<i>Murodov Orif Jumayevich</i>	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI .....	1497
<i>Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna</i>	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ .....	1502
<i>Киличева Ф.Б.</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI VAHOLASH .....	1507
<i>Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li</i>	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН .....	1511
<i>Маденова Эльмира Нзаматдиновна</i>	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	1516
<i>Мансуров Обид Зайнидинович</i>	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
<i>Xamrakulov Azamat Baxritdinovich</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
<i>Jalilov Jamshid G'anjionovich</i>	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI .....	1534
<i>To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
<i>Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li</i>	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION .....	1545
<i>Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna</i>	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	1549
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i>	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI.....	1554
<i>Xashimova Salima Nigmatullayevna</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
<b>B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich</b>	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL .....	1563
<b>Kurbanova Mohinur Xabib qizi</b>	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
<b>Mustafakulova Nodira Primovna</b>	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI .....	1572
<b>Qodirov Baxodir Qudratovich</b>	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI .....	1577
<b>Normuradov Nurbek Sunatilloevich</b>	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ .....	1581
<b>Шарахметов Шерзад Шаазимович</b>	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich</b>	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
<b>Feruz Mirzoyeva Salimovna</b>	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
<b>Djalilov Sardor Sadilloevich</b>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI .....	1601
<b>Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich</b>	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT .....	1606
<b>Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi</b>	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH .....	1609
<b>Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li</b>	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
<b>Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
<b>Mardiyev Akrom Djumaboyevich</b>	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	1627
<b>S.J. Sultanov</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....	1633
<b>Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich</b>	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI .....	1639
<b>Xazratkulov Niyoz Namazbayevich</b>	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS .....	1644
<b>Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev</b>	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI .....	1648
<b>Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI .....	1652
<b>Mahmudova Chinora Anvar qizi</b>	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI .....	1657
<b>Nizamov Xusniddin Fazliddinovich</b>	



# XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI

**Nizamov Xusniddin Fazlidinovich**

“Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston” Temir yo'l kompaniyasi  
Infratuzilma va ekspluatatsiya boshqarmasi

Boshliq o'rinbosari

ORCID: 0009-0000-1072-5089

Email: [Khizamov@gmail.com](mailto:Khizamov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb etishda imtiyozlar va kafolatlar tizimining o'zaro bog'liqligi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda soliq, bojxona va huquqiy kafolatlar mexanizmlarining investitsion muhitga ta'siri nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan. O'zbekiston misolida iqtisodiy erkinlik indeksi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi o'rtasidagi dinamik bog'liqlik o'rganilib, imtiyozlar siyosatini huquqiy kafolatlar bilan uyg'unlashtirish investitsion jozibadorlikni oshirishda hal qiluvchi omil ekani aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** xorijiy investitsiyalar, imtiyozlar tizimi, kafolatlar, iqtisodiy erkinlik indeksi, investitsion jozibadorlik, investitsion muhit, institutsional barqarorlik.

**Abstract.** This article analyzes the interrelation between the system of benefits and guarantees in attracting foreign investments and its impact on economic efficiency. Theoretical and practical aspects of tax, customs, and legal mechanisms that contribute to a favorable investment climate are examined. Using Uzbekistan as a case study, the paper explores the dynamic relationship between the Index of Economic Freedom and the inflow of foreign direct investment. The findings indicate that the balanced combination of incentive policies and legal guarantees plays a crucial role in enhancing investment attractiveness and ensuring the institutional stability of the national economy.

**Key words:** foreign investment, system of benefits, guarantees, economic freedom index, investment attractiveness, investment climate, institutional stability.

**Аннотация.** В статье анализируется взаимосвязь системы льгот и гарантий в привлечении иностранных инвестиций, а также их влияние на экономическую эффективность. Рассмотрены теоретические и практические аспекты налоговых, таможенных и правовых механизмов, способствующих формированию благоприятной инвестиционной среды. На примере Узбекистана исследована динамическая зависимость между индексом экономической свободы и притоком прямых иностранных инвестиций. Сделан вывод о том, что согласованное применение системы льгот и правовых гарантий является ключевым фактором повышения инвестиционной привлекательности и устойчивости национальной экономики.

**Ключевые слова:** иностранные инвестиции, система льгот, гарантии, индекс экономической свободы, инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда, институциональная устойчивость.

## KIRISH

Xorijiy investitsiyalar xalqaro iqtisodiy aloqalarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, texnologik yangilanish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda bevosita ahamiyatga ega. Bunday sarmoyalar kapital yetishmayotgan davlatlarda resurslardan samarali foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish imkonini yaratadi. Shu bois, xorijiy kapitalni jalb etish mexanizmlari har qanday iqtisodiyotning o'sishi va modernizatsiyasi uchun zarur shart hisoblanadi. Investitsiyalarni jalb etishda imtiyozlar va kafolatlar tizimi o'zaro uyg'unlashgan iqtisodiy-huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Imtiyozlar investor uchun moliyaviy rag'bat, kafolatlar esa kapitalni ichki va tashqi xavflardan himoya qiladi. Ularning uyg'unlashuvi investitsion muhitning barqarorligini ta'minlaydi hamda uzoq muddatli hamkorlikni rag'batlantiradi.



So'nggi yillarda xalqaro kapital harakati murakkablashib, investorlar uchun raqobat keskinlashmoqda. Shu sababli davlatlar xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish maqsadida soliq, bojxona va huquqiy kafolatlar tizimini takomillashtirishga intilmoqda. Shunday sharoitda investitsiyalarni rag'batlantiruvchi mexanizmlarning iqtisodiy samaradorligini baholash va xalqaro tajriba bilan solishtirish dolzarb masalaga aylandi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar investitsion muhitni baholash, sarmoyaviy xavflarni kamaytirish hamda milliy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun nazariy hamda amaliy asos yaratadi. Shu bilan birga, imtiyoz va kafolatlar tizimini tahlil qilish xorijiy kapital oqimini boshqarish va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda imtiyozlar va kafolatlar tizimining o'rni turli iqtisodiy maktablar tomonidan turlicha izohlanadi. Dastlabki tadqiqotlar xorijiy kapital oqimlarini faollashtirishda davlatning rag'batlantiruvchi siyosati muhimligini ta'kidlagan bo'lsa, keyingi yillarda bu tizimlarning iqtisodiy samaradorligi, muvozanati va institutsional barqarorlik bilan bog'liqligi chuqur tahlil qilinmoqda.

Morisset (1999) xorijiy investitsiyalarni jalb etishda soliq imtiyozlari va huquqiy kafolatlarning o'zaro nisbatiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, soliq yengilliklari dastlabki bosqichda rag'bat bersa-da, ular uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlamaydi. Davlat infratuzilmasi va inson kapitali yetarli bo'lmaganda, imtiyozlarning samarasi past bo'ladi hamda ortiqcha imtiyozlar budjetga salbiy ta'sir ko'rsatishi va korrupsiyani kuchaytirishi mumkin. Shu bois, Morisset huquqiy kafolatlar va soddalashtirilgan tartibotlarni barqarorroq mexanizm sifatida ko'radi.

Helalat (2017) esa Iordaniya tajribasi asosida huquqiy himoya, daromadni erkin repatriatsiya qilish va xalqaro arbitraj mexanizmlarining mavjudligi investor ishonchini mustahkamlayotganini ta'kidlaydi. Shuningdek, ikki tomonlama investitsiya bitimlari (BITs) qo'shimcha kafolat yaratib, kapital oqimini kuchaytiradi.

Boshqa olimlar imtiyozlarning ta'sirini texnologiya transferi va bilim almashuvi bilan bog'laydi. Ularning fikricha, xorijiy sarmoya orqali keltirilgan ilg'or texnologiyalar mahalliy firmalarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining optimal darajasini belgilash zarur: agar investitsiyaning ijtimoiy foydasi xususiy foydadan yuqori bo'lsa, davlat imtiyozlar orqali bu tafovutni muvozanatlashtirishi kerak (Blomstrom va boshqalar, 2003).

James (2009) esa investitsion imtiyozlarning samaradorligini boshqaruv sifati bilan bog'laydi. U imtiyozlarning o'zi yetarli natija bermasligini, ular samarali institutsional muhit, shaffof boshqaruv va mustahkam nazorat tizimi bilan qo'llab-quvvatlangandagina ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. James, shuningdek, ayrim mamlakatlarda imtiyozlar siyosiy bosim yoki tor manfaatlar ta'sirida haddan tashqari kengaytirilganini, bu esa iqtisodiy muvozanatni buzishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, u imtiyozlarning iqtisodiy natijalarini muntazam baholab borish va ularni strategik maqsadlarga moslashtirish zarurligini ilgari suradi.

Serdinova (2020) o'z tadqiqotlarida investitsion imtiyozlarning turlarini o'rganishga uringan bo'lib, muallif ularni tizimli ravishda to'rt toifaga — umumiy, hududiy, ustuvor va strategik kabilarga ajratadi. U Turkiya misolida bu imtiyozlarning hududiy rivojlanish siyosatiga integratsiyalashganligini ko'rsatadi. Serdinovaning ta'kidlashicha, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlarda soliq yengilliklari, subsidiyalar va foiz stavkalari bo'yicha preferensiyalar kengroq qo'llaniladi, bu esa investitsiyalarning geografik taqsimotini muvozanatlashtirishga yordam beradi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, imtiyozlar investorlarga dastlabki iqtisodiy rag'bat beradi, kafolatlar esa ularning huquqiy xavfsizligini ta'minlaydi. Bu tizimlarning o'zaro uyg'unligi, davlat siyosatining izchilligi va institutsional barqarorlik darajasi investitsion oqimlarning hajmi hamda barqarorligiga bevosita ta'sir etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, deduksiya va induksiya usullari, shuningdek, statistik hamda kontent-tahlil metodlari qo'llanildi. Ushbu yondashuvlar orqali investitsion siyosatning rag'batlantiruvchi mexanizmlari, huquqiy kafolatlarning iqtisodiy ta'siri hamda ularning barqaror investitsion muhitni shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xorijiy kapital harakatining faolligi nafaqat makroiqtisodiy barqarorlik bilan, balki investitsion muhitning institutsional sifat darajasi bilan ham belgilanadi. Davlatning iqtisodiyotdagi roli bevosita investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish, rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish va sarmoyadorlar



riskini kamaytirish orqali namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, investitsion imtiyozlar tizimi kapital oqimini boshqarish va milliy iqtisodiyotning tarkibiy o'sishini tezlashtirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy instrument sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Investitsion imtiyozlar — bu xorijiy investorlar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan beriladigan moliyaviy, soliq, bojxona yoki boshqa turdagi yengilliklar tizimidir. Ularning iqtisodiy mohiyati kapital oqimini rag'batlantirish, investorlarning xarajat yukini kamaytirish va investitsion risklarni yumshatishdan iborat. Amaliy jihatdan, imtiyozlar faqat investor manfaatlariga emas, balki iqtisodiyotning ustuvor sohalariga kapital yo'naltirish orqali milliy manfaatlariga ham xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda imtiyozlar bir necha mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Eng keng tarqalgan tasnifga ko'ra, ular umumiy, sohaviy, hududiy va strategik turlarga bo'linadi. Umumiy imtiyozlar barcha investorlarga teng asosda taqdim etilsa, sohaviy imtiyozlar iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratiladi. Hududiy imtiyozlar iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan mintaqalarga investitsiyalarni jalb etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Strategik imtiyozlar esa texnologik modernizatsiya, eksport salohiyati va innovatsion rivojlanish bilan bog'liq yirik loyihalarni rag'batlantirish uchun qo'llaniladi.

Investitsion siyosat amaliyotida eng keng tarqalgan chora-tadbirlar soliq va bojxona imtiyozlaridir. Soliq yengilliklari xorijiy investorlar uchun muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib, ular daromad solig'idan ozod etish, soliq stavkalarini pasaytirish, amortizatsiyani tezlashtirish, investitsion chegirmalar yoki foydaning qayta investitsiya qilingan qismini soliqdan ozod qilish shaklida qo'llaniladi. Ushbu mexanizm investorning dastlabki bosqichdagi moliyaviy yukini kamaytirib, kapital aylanish tezligini oshiradi va investitsion loyihaning rentabelligini ta'minlaydi.

Bojxona imtiyozlari esa asosan ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarish uskunalari va butlovchi qismlarni import qilish jarayonida qo'llaniladi. Bu turdagi yengilliklar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, texnologik modernizatsiyani tezlashtiradi va mahsulot sifatining oshishiga zamin yaratadi. Moliyaviy va kredit imtiyozlari ham investitsion muhitni rag'batlantiruvchi muhim vositalardandir. Ular davlat kafolatlari, subsidiyalangan kreditlar, grantlar yoki foiz stavkalarini pasaytirish orqali investorlar uchun moliyaviy xavflarni kamaytiradi.

Bojxona va soliq imtiyozlari, xususan soliq ta'tili va bojxona bojlari istisnosi, investitsiyalar, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishda muhim rol o'ynaydi (Liu va Mao, 2019). Ko'plab mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, imtiyozlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshiradi va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Natijada, sarmoyalar hajmining ortishi bandlik darajasining ko'tarilishi, eksport salohiyatining kengayishi hamda budjet daromadlarining barqarorlashuvi orqali iqtisodiy tizimning umumiy samaradorligini oshiradi.

Mazkur imtiyozlar tizimining iqtisodiy samarasi shundaki, u sarmoyadorlarning foyda marjasini oshirish bilan birga, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish bazasini kengaytiradi, bandlik darajasini ko'taradi va budjetga bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Salayev (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda investitsiya salohiyati va investitsiya jozibadorligi o'rtasida to'g'ri proporsional, investitsiya riski bilan esa teskari proporsional bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Bu holat investitsion jarayonlarda obyektiv iqtisodiy qonuniyat sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy salohiyati yuqori va investitsiya riski past bo'lsa, investorlar uchun uning jozibadorligi tabiiy ravishda ortadi. Muallif ushbu modelda asosan ikki asosiy o'zgaruvchini — salohiyat va riskni — tahlil markaziga qo'ygan. Bu yondashuv investitsion muhitni baholashda muhim amaliy ahamiyat kasb etsa-da, unda institutsional omillar, xususan, imtiyozlar va kafolatlar tizimining roli yetarli darajada yoritilmagan.

Aslida esa, investitsiya jozibadorligining shakllanishida faqat iqtisodiy salohiyat va risk darajasi emas, balki davlat tomonidan yaratilgan kafolat va rag'batlantirish mexanizmlari ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki yuqori salohiyat va nisbatan past risk sharoitida ham, agar investorning huquqlari yetarlicha himoyalangan bo'lsa yoki imtiyozlar tizimi aniq va barqaror bo'lmasa, investitsion faollik pasayadi.

Masalan, soliq va bojxona imtiyozlari, yer va infratuzilmadan foydalanishdagi qulayliklar, foydaning erkin repatriatsiyasi kafolatlari, shuningdek, investitsion nizolarni hal etishning huquqiy mexanizmlari kabi omillar investorlar uchun xavfni kamaytiruvchi va rentabellikni oshiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, imtiyoz va kafolatlar tizimi investitsiya jozibadorligini oshiruvchi teng uchinchi determinant sifatida qaralishi lozim. Demak, investitsiya jozibadorligi quyidagi uch omilning o'zaro muvozanatiga bog'liq bo'ladi (1-jadval):

$$J = f(S, R, I)$$

bu yerda:

J – investitsion jozibadorlik,

S – investitsiya salohiyati,

R – investitsiya riski,

I – imtiyozlar va kafolatlar tizimi.



1-jadval. Investitsiya salohiyati, investitsiya riski va imtiyozlar-kafolatlar tizimining investitsiya jozibadorligiga birgalikdagi ta'siri

Holatlar	Investitsiya salohiyati darajasi	Investitsiya riski darajasi	Imtiyozlar va kafolatlar tizimi darajasi	Investitsion jozibadorlik darajasi	Izoh
1	Yuqori	Past	Kuchli va barqaror	Juda yuqori	Eng qulay muhit: iqtisodiy salohiyat yuqori, risk minimal, investor huquqlari himoyalangan.
2	Yuqori	Past	Zaif yoki beqaror	Yuqori	Iqtisodiy imkoniyatlar mavjud, ammo kafolat tizimi sust – investor ishonchi to'liq emas.
3	Yuqori	Yuqori	Kuchli	O'rtacha	Risk yuqori, lekin kuchli kafolatlar uni qisman kompensatsiya qiladi.
4	Past	Past	Kuchli	O'rtacha	Resurslar kam, lekin davlat kafolatlari va imtiyozlar hisobiga investor jalb qilinadi.
5	Past	Yuqori	Kuchli	Past	Tizim muayyan xavflarni kamaytiradi, ammo salohiyat yetishmasligi jozibadorlikni pasaytiradi.
6	Past	Yuqori	Zaif	Juda past	Eng noqulay muhit: risk yuqori, salohiyat past, kafolat tizimi sust.
7	Yuqori	O'rtacha	Kuchli	Yuqori	Yaxshi muvozanat: kuchli kafolatlar va yetarli salohiyat investorni jalb etadi.
8	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha	Tipik o'sib borayotgan bozor holati, jozibadorlik o'rtacha darajada.

Bu kengaytirilgan jadval shuni ko'rsatadiki, agar Salayev modelida investitsion jozibadorlik faqat salohiyat va risk nisbatiga tayanib baholangan bo'lsa, amalda bu jarayonni imtiyozlar va kafolatlar tizimi sezilarli darajada o'zgartiradi. Kuchli kafolatlar tizimi hatto yuqori risk sharoitida ham investorlarda ishonch kapitalini shakllantiradi va ularning uzoq muddatli ishtirokini ta'minlaydi.

Mamlakatning investitsiya jozibadorligini belgilovchi muhim omillardan biri bu mamlakatning iqtisodiy erkinlik darajasidir. Iqtisodiy erkinlik indeksi xalqaro miqyosda investorlar uchun iqtisodiy muhitning ochiqligi, huquqiy barqarorligi va bozor mexanizmlarining samaradorligini baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu indeks Heritage Foundation tomonidan har yili e'lon qilinadi va u mulk huquqi, korrupsiyadan holilik, soliq yuklamasi, hukumat xarajatlari, investitsiya erkinligi kabi 12 ta indikator asosida shakllantiriladi. Mazkur ko'rsatkichlar bevosita mamlakatdagi imtiyozlar va kafolatlar tizimining sifatini ham aks ettiradi, chunki iqtisodiy erkinlik yuqori bo'lgan davlatlarda odatda sarmoyadorlar uchun institutsional himoya kuchli bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Mamlakatda xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish, soddalashtirilgan soliq tizimini joriy etish, bojxona tartib-taomillarini qisqartirish va kapital harakatining erkinligini ta'minlash borasida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Bularning barchasi imtiyozlar va kafolatlar tizimining amaliy samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rni investitsion muhitni yaxshilashda institutsional kafolatlar tizimining qanchalik samarali ishlashini ko'rsatuvchi mezon sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy erkinlikning o'sishi bu nafaqat bozor mexanizmlarining kuchayishi, balki investorlar uchun davlat tomonidan yaratilgan ishonch muhitining mustahkamlanishidir. Natijada, kuchli imtiyozlar va kafolatlar tizimi O'zbekistonning investitsiya jozibadorligini oshirib, uni mintaqadagi raqobatbardosh iqtisodiy markazga aylantirishga xizmat qilmoqda (2-jadval).



2-jadval. O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rni va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi dinamikasi

Yillar	TTXI oqimi, mlrd dollar	O'zbekistonning "Iqtisodiy erkinlik indeksi" dagi o'rni
2020	2,85	114
2021	2,84	108
2022	3,36	117
2023	4,1	109
2024	11,9	103

2020–2024-yillar davomida O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rni va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi o'rtasidagi dinamik tahlil mamlakatda imtiyozlar va kafolatlar tizimining bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. 2020-yilda O'zbekiston iqtisodiy erkinlik indeksida 114-o'rinni egallagan bo'lib, TTXI hajmi 2,85 milliard dollarni tashkil etgan. 2021-yilda indeks 108-o'ringa yaxshilangan. Bu davr mamlakatda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan dastlabki islohotlar — soliq yengilliklari, bojxona tartibotlarining soddalashtirilishi, litsenziya va ruxsatnoma jarayonlarining qisqartirilishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, kafolatlar tizimi, xususan, investorlar huquqlarining huquqiy himoyasi va nizolarni hal etish mexanizmlari hali yetarlicha shakllanmaganligi sababli xorijiy kapital oqimi barqaror o'sish bosqichiga chiqq olmagan.

2022-yilda investitsiya oqimi 3,36 milliard dollarga oshgan bo'lsa-da, O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rni 117-o'ringa pasaygan. Bu holat, soliq va bojxona imtiyozlarining kengaytirilganini. Shu davrda hukumat tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiyani kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

2023-yilga kelib esa, investitsiya hajmi 4,1 milliard dollarga yetgan, indeksdagi o'rin 109-ga yaxshilangan. Bu davrda kafolatlar tizimini mustahkamlash yo'nalishida sezilarli natijalar kuzatildi: "Investitsiyalar to'g'risida"gi qonun yangilandi, xalqaro arbitraj mexanizmlarini qo'llash kengaytirildi va xorijiy investorlarning mulk huquqini himoya qilish kafolatlari mustahkamlandi.

2024-yil ushbu jarayonlarning eng muhim bosqichi bo'ldi. Xorijiy investitsiyalar oqimi 11,9 milliard dollarga yetgan, iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rni esa 103-ga yaxshilangan. Bunday keskin o'sish mamlakatda imtiyozlar va kafolatlar tizimining uyg'unlashgan, tizimli shaklga o'tganini ko'rsatadi. Shu yilda strategik tarmoqlar uchun differensial imtiyozlar joriy etildi, investorlar daromadlarini erkin repatriatsiya qilish huquqi, milliyashtirishdan himoya kafolatlari, shaffof soliq tizimi va sud mustaqilligi kabi omillar mustahkamlandi. Natijada, xorijiy investorlarning ishonchi ortdi, institutsional muhit barqarorlashdi va iqtisodiy erkinlik darajasi sezilarli ravishda oshdi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillardagi tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning investitsion siyosati dastlab rag'batlantiruvchi imtiyozlarga tayanib boshlangan bo'lsa, keyinchalik huquqiy kafolatlar va institutsional islohotlarga asoslangan barqaror tizimga o'tgan. Bu esa mamlakatning xalqaro investitsion jozibadorligini keskin oshirib, iqtisodiy erkinlikning o'sishiga bevosita hissa qo'shgan. Shunday qilib, O'zbekiston tajribasi xorijiy investitsiyalarni jalb etishda imtiyozlar va kafolatlar tizimi o'zaro to'ldiruvchi hamda muvozanatli mexanizmlar sifatida qaralishi lozimligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, tahlillar xorijiy investitsiyalarni jalb etishda imtiyozlar va kafolatlar tizimi o'zaro bog'liq va muvozanatli mexanizmlar sifatida samarali ishlashini ko'rsatdi. Dastlab soliq va bojxona imtiyozlari orqali investorlar uchun iqtisodiy rag'batlar yaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda huquqiy kafolatlar, shaffof boshqaruv va institutsional barqarorlikni ta'minlash orqali sarmoyaviy muhitning ishonchligi oshdi. Natijada, mamlakatning iqtisodiy erkinlik indeksi yaxshilandi, xorijiy kapital oqimi esa sezilarli darajada ko'paydi. Shu bois, barqaror investitsion o'sish uchun imtiyozlar siyosatini huquqiy kafolatlar tizimi bilan uyg'unlashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Blomström M., Kokko A., Mucchielli J.L. (2003). The Economics of Foreign Direct Investment Incentives. In: Herrmann, H., Lipsey, R. (eds) Foreign Direct Investment in the Real and Financial Sector of Industrial Countries. Springer, Berlin, Heidelberg. 37-60.
- Dunning J.H. (1993). Multinational Enterprises and the Global Economy. Wokingham, UK: Addison-Wesley. pp. 105–109.



3. Helalat M. (2021). The legal guarantees to protect foreign investment in Jordan. *Journal of International Trade Law and Policy*. 1-15.
4. James S. (2009). Incentives and Investments: Evidence and Policy Implications. 1-50.
5. Klein M. (2005). Capital Flows and the Role of Political Risk Insurance. Washington, DC: World Bank Policy Research Working Paper No. 3565. pp. 14–18.
6. Liu Y., Mao J. (2019). How Do Tax Incentives Affect Investment and Productivity? Firm-Level Evidence from China. *American Economic Journal: Economic Policy*. 48 p.
7. Morrisset J. (1999). How Tax Policy and Incentives Affect Foreign Direct Investment: A Review. , 1. <https://doi.org/10.1596/1813-9450-2509>.
8. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2024). FDI Regulatory Restrictiveness Index – Measuring the Impact of Regulatory Reform. Paris: OECD Publishing.
9. Salacuse J.W. (2010). *The Law of Investment Treaties*. Oxford: Oxford University Press. pp. 221–227.
10. Salayev D.S. Milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitini yaxshilash asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 59 b.
11. Serdinova A. (2024). Tax incentive schemes and balanced regional economic growth in Turkey. *Молодой вчений*. 73-79.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---